

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH: SAMARQAND VILOYATINING SALOHIIYATI	8-11
--	------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayarova Zuhra, Turayev Baxtiyor</i> HUDUDDA ASALARICHILIK FAOLIYATINING UY XO'JALIKLARI DAROMADLARIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	12-22
<i>Dr. Abror Kucharov, Dr. Jyoti Meshram</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF INDIAN INVESTMENT IN CENTRAL ASIA AND ITS RELEVANCE FOR UZBEKISTAN	23-32
<i>Qodirov Abubakr, Egamberdiyev Muzaffar</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING TAYANCH HUDUDI: FARG'ONA VILOYATI VA UNING IQTISODIY TARMOQLARI	33-37

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF ESTETIKASIDA GO'ZALLIKNING TARBIYAVIIY POTENSIALI	38-43
--	-------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Muxammadieva Mashxura, Amirqulova Gulxayo</i> TIBBIY TERMINOLOGIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	44-49
<i>Naimova Parvina Rustamovna</i> O'ZBEK TILIDA HAYVON OBRAZLARINING FRAZELOGIZMLARDA VA MAQOLLARDA INSON XARAKTERI VA XULQINI IFODA ETISHI	50-54
<i>Tashxujayeva Nigora Madaminjanovna</i> FRAZELOGIK BIRLIKLARDA MIFOLOGEMALARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI	55-58

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Zokirov Sherzod</i> MAHALLIIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI QARORLARI QONUNIYLIGI USTIDAN PROKUROR NAZORATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	59-65
<i>Mirzaabdullayeva Matluba Rustamovna</i> YER SERVITUTINI RIVOJLANISHI	66-70
<i>Uzbekova Dilshoda Tulkinovna</i> ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	71-80

<i>Yo'ldoshev Ilhom Abdujalil o'g'li</i> KIBERKORRUPSION JINOYATLAR BO'YICHA AYRIM ILMIY-NAZARIY MULOHAZALAR	81-87
<i>Adizov Alibek Oybek o'g'li</i> ZARARNING TO'LIQ QOPLANISHI MUNOSABATI BILAN JINOYAT ISHLARINI SUDGACHA TUGATISH: NAZARIY VA AMALIY MASALALAR	88-94
<i>Xoligova Gavhar Ramazon qizi</i> CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLAHGAN ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY HUQUQIY JIHATLARI	95-99
<i>Низомова Настарин Владимировна</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В СФЕРЕ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЯПОНИИ И УЗБЕКИСТАНА	100-107
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>To'raeva Gulchiroy Sheralievna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH	108-114
<i>Xodjayev Anvar Zakirovich</i> OG'IR ATLETIKADA DAST KO'TARISH MASHQINI BAJARISHGA O'RGATISH USLUBIYATI	115-125

Received: 31 August 2025
Accepted: 15 September 2025
Published: 30 September 2025

Article / Original Paper

REPRESENTATION OF HUMAN CHARACTER AND BEHAVIOR THROUGH ANIMAL IMAGERY IN UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS AND PROVERBS

Naimova Parvina Rustamovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages teacher of Italian language

Abstract. In this article, phraseological expressions that frequently appear in literary works and every day discourse are explored, with particular attention to the embodiment of animal imagery within them and the ways in which these images reflect human character, emotional states, and patterns of daily life.

Keywords: phraseology, phraseological, folklore, behavior, character, metaphor.

O'ZBEK TILIDA HAYVON OBRAZLARINING FRAZEOLOGIZMLARDA VA MAQOLLARDA INSON XARAKTERI VA XULQINI IFODA ETISHI

Naimova Parvina Rustamovna

Samarqand Davlat Chet tillari instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiy asarlarda va kunlik muloqot matnida ko'p uchraydigan frazeologizmlar va ularda hayvon obrazlarining namoyon bo'lishi, inson xarakteri va holatlarini, kundalik yashash tarzini qay yo'sinda namoyon etishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologizm, xalq og'zaki ijodi, xulq, xarakter, metafora.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI8Y2025N07>

Dunyodagi barcha insonlar turli tillarda muloqot qilsalar-da, lekin hammani birlashtirib turuvchi maqsad bu bitta, ya'ni miyamizda aks etgan fikrni bayon etish, tinglovchiga yetkazib berishdan iboratdir. Ushbu o'rinda bizga verbal hamda noverbal muloqot turlari yordamga keladi. Muloqotning aniq tiniq bo'lishi, fikrlarning to'g'ri talqini bevosita ushbu ikki muloqot turiga bog'liq. Noverbal muloqot bu tana a'zolari harakatlari, mimikalar va jestlar orqali namoyon bo'lib, so'zlashuvda muhim rol o'ynasa-da, lekin verbal muloqotning ham o'rni muloqotda muhimdir. Biz so'zlarimiz orqali ichki ko'rinishimizni, his tuyg'ularimizni, g'oyalarimiz va fikrlarimizni ifoda etamiz. Asosiy maqsadimiz so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida maqsadli, manfaatli va foydali muloqot o'rnatishdir. Bunday muloqot jarayonini tashkil etishda muloqot jarayonida frazeologiyani ham o'rni beqiyos. Frazeologiya bu tilshunoslikning eng ajralmas qismlaridan biri bo'lib, frazeologizmlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Frazeologizmlar esa bir necha so'zlarni bir joyda namoyon bo'lishi va o'z ma'nosida emas, boshqa ma'noni yoritib berishidir. Masalan bunga misol qilib quyidagi frazeologizmni olishimiz mumkin. "Aravani quruq olib qochmoq"- buni ma'nosi arava bo'sh degani emas, balki bo'sh va ma'nosiz gapirishdir. [1]

Frazeologizmlarning o'zi asli xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Asosiy biz nutqimizda ko'p qo'llaydigan frazeologizmlarimiz insonlarning yashash sharoitidan, turmush tarzidan va

ijtimoiy hayotidan kelib chiqqan. Bizga ma'lumki xalq og'zaki ijodi bu xalq tomonidan yaratilgan bo'lib, og'izdan og'izga o'tib bizgacha yetib kelgan. Maqollar ham shu asnoda paydo bo'lgan. Donolarning gapi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Frazelogizmlar ham shu kabi paydo bo'lgan bo'lib, mavjud holatni to'liqroq va aniqroq ifoda etish uchun tilda namoyon bo'ladi. Uning ham bir necha shakl va ma'no turlariga ko'ra turlari mavjud. Bular:

- Omonimlik
- Sinonimlik
- Antonimlik
- Paronimlik

Omonimlik jihatdan ko'radigan bo'lsak, bunda ko'rinishi bir xil frazeologizmlar qo'llaniladi. Ammo ular ma'no jihatidan bir-biridan tubdan farqlanadi. Masalan: "boshga ko'tarmoq"- e'zozlamoq (Onamizni hammamiz boshimizga ko'tarib yuramiz.) nazdida ifodalansa, ikkinchi ma'nosi esa bu –shovqin qilmoqdir.(Bolalar maktabni boshlariga ko'tarishdi.)

Sinonimlik jihatdan olib aytadigan bo'lsak, bir necha turli ko'rinishni aks etuvchi frazeologizmlar bir xil ma'noni ifodalab keladi. "shamoldek uchmoq", "bir zumda yetib bormoq". Ushbu misollar bir xil ma'noni ya'ni tezlik, chaqqonlikni ifodalab kelmoqda. Sinonimik deyilishiga sabab, ko'rinishi turlicha bo'lsada, bir xil mavzuni ifodalab kelmoqda.

Antonimlik jihatdan ko'radigan bo'lsak, frazeologizmlar ham o'zaro antonimik holatlarda keladi, ya'ni bir-biriga nisbatan zid bo'lgan frazeologik iboralarni muloqotda va badiiy asarlarda ko'p uchratamiz. Misol uchun: "ko'ngli oq", "ko'ngli qora"- ushbu frazeologik birliklarda insonlarni ko'ngli ranglar orqali tasvirlanyapti. Biz bilamizki oq- ijobiy yaxshi degan ma'nolarni, qora- salbiy yomon ma'nolarni anglatib keladi.

Paronimlik jihatdan endi frazeologizmlarga to'xtaydigan bo'lsak, bular gaplar tuzilishi jihatdan yaqin bo'ladi, ammo ma'nolari o'zaro farqlanadi. Masalan: "tilini yutib qo'ymoq", "tilini tiymoq". Ushbu ifodalar bir-biriga ko'rinish jihatdan o'xshab ketsa-da, ammo turli ma'nolarni ifodalamoqda. Birinchisi gapirmaslikni ifodalasa, ikkinchi iborada esa salbiy ma'no ifodalanyapti.

Frazeologik iboralar doimo ko'chma ma'noda qo'llaniladi va vaziyatni yengilroq tushuntirishga va tasvirlashga xizmat qiladi. Nutq uchun xizmat qiladi va uni rang-barangligini namoyon etadi. [2]

Frazeologiyada ko'p o'rganiladigan yana bir frazeologizmlar bu hayvonlar tasviri harakati orqali insonlarning vaziyat va holatlarini namoyon etib berishidir. Frazeologik iboralar qo'llanilganda, gap jonlanadi va tasavvurimiz kengayadi. Chunki aytilgan frazeologik ifoda yoki birlik orqali ko'z oldimizda hamma narsa ochiq oydin namoyon bo'ladi. Bu adabiy asarlarda va shu bilan birga muloqot matnida juda ham ko'p qo'llaniladi. Kundalik turmush jarayonida bularni juda ham ko'p uchratamiz va ishlatamiz. Masalan bunga misol qilib quyidagi frazeologik iborani olsak bo'ladi. "Maymundek sakrab-sakrab yurdi". Ushbu ifodada insonning yurish holatlari maymun harakatlari orqali tasvirlangan. Maymun sho'x harakatchan bo'lganligi bois, ushbu so'z asos sifatida olingan.[3]

Bu kabi frazeologik iboralarning tur xildagi ko'rinishlari mavjud:

- Qo'ydek yuvosh ekan- qo'y beozor bo'lganligi bois sodda odamga nisbatan ishlatilyapti.
- It hurar karvon o'tar- it juda ham ko'p akillaganligi bois, juda ham ko'p gapiruvchi, g'iybatchi insonlarni unga o'xshatishgan.

- Bo'rini qanchalik boqma- o'rmon tomon qochadi – bu yerda insonlarni qanchalik o'zgartiramiz yoki boshqa yo'lga boshlaymiz desak ham, baribir o'zligiga boradi degan ma'no ifodalanmoqda.
- Sher yurak- bunda insondagi qo'rqmaslik, jasorat sherning yuragi orqali tasvirlanyapti. Ya'ni qo'rqmas inson.
- Qo'y bo'lib, bo'ri bo'ldi- bunda tashqi ko'rinishi, gapirishi yuvoshgina ko'rinsa-da, ammo ichidan pishgan inson tasviri gavdalanitirilyapti. Qo'y – sodda odam timsoli, bo'ri – kuchli odam tasviri.
- Qarg'adek qag'illamoq- ko'p, bema'ni va bemazmun gapiruvchi shaxslar nazarda tutiladi. Qarg'alarga qish faslida e'tibor qaratadigan bo'lsak, hech qanday sababsiz va hech kimsasiz, daraxt shoxiga chiqib qag'illaydi. Bu yerda shu tasvir orqali shu turdagi odamlar gavdalanitirilgan.
- Bo'riday och qolmoq – bu juda ham och qolganda ushbu ibora qo'llaniladi. Ya'ni hamma narsani yeyishga tayyor. Bo'ri har har zamonda ovqatlanmaydi, och qolib ovqatlanadi. Shu uchun ushbu tasvir haqiqatdan ham juda och qolgan insonga nisbatan ishlatiladi.
- Itdek sodiq- it insonning eng yaqin do'sti hisoblanadi. Hayvon bo'lishiga qaramasdan uni hech qaysi bir vaziyatda tashlab qo'ymaydi. Shu darajada sodiqligi tufayli, sodiq insonlarga nisbatan ushbu ibora qo'llaniladi.
- Quyon yurak- ushbu frazeologik ibora xalq orasida juda ham keng qo'llaniladi. Quyon juda ham qo'rqqoq hayvonligi bois va har narsadan doim qo'rqib turgani uchun, qo'rqqoq insonlarni quyon yurak deb atashadi.
- Ot bo'lib yugurmoq- ot tabiatan juda ham tez yuguradigan uy hayvoni sanaladi va avvalda u transport vositasi vazifasini ham bajargan. Tez yugurganligi bois, tez yuguruvchi shaxslarga nisbatan ushbu ibora qo'llaniladi.
- Maymun yurak- bu o'ynoqi ya'ni bitta qarorda turmaydigan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Maymunlar o'ynoqi, hech narsaga jiddiy yondashmaydigan jonotlar turi hisoblanadi. Shu turdagi hech narsani jiddiy qabul qilmaydigan, ikkilanadigan shaxslarni ta'riflashda ko'proq qo'llaniladi.
- Ilonni yog'ini yalagan- ilon juda ham ayyor va kutilmaganda tashlanib, kutilmaganda chiqib oladi. Shu kabi ayyor va tili bilan shatta-shatta gapiruvchi shaxslarni shu talqinda atashadi.

Frazeologik birliklar orqali fikrlashimiz va tushuntirishimiz oson bo'lishi bilan bir qatorda, tilni madaniy unsurlarini tushunishimizga va qadrlashimizga yordam beradi. Bu iboralarning aksariyati xalqning turmush tarzi va ijtimoiy hayotini aks ettirganligi tufayli, o'sha til madaniyati haqida tafakkurga ega bo'lamiz. [4]

Bu kabi frazeologik birliklar nafaqat ijtimoiy hayotimizda yoki kunlik muloqotimizda, balki ilmiy va badiiy asarlarimizda ham keng tarqalgan. Ular asarlarni jonlantirishga, o'quvchiga asarni to'liqroq va aniqroq tushunishiga xizmat qiladi. Badiiy asarlar uchun frazeologik birliklar juda ham muhim hisoblanadi. Chunki asarlar doimo tasavvurimizda jonlanadi. Asarlarda quyidagi kabi birliklar mavjud. "Otdak chopib, hovliga kirdi", "itday xor bo'ldi, yuz-ko'ziga qaraydigan odam qolmadi", "tulki kabi hiyla ishlatib, ko'p kishini aldadi", "quyondan qo'rqqan bola kabi, gapirishga ham jur'at qilolmadi". [5]

Frazeologizmlarda insonlar tasviri hayvonlar nazdida gavdalanishi juda ham ko'p kuzatiladi. Turli turdagi uy va yovvoyi hayvonlar, shu bilan bir qatorda qushlar va suv jonotlari

nazdida ham gavdalanadi. Asosiy ko'p uchraydigan jonzotlar – maymun, quyon, bo'ri sher va ilon bo'lsa, uy hayvonlaridan it, eshak, qo'y va tovuq dir. Har bir hayvon insonlarda mavjud xislatlarini ifodalaydi. Ya'ni hayvonlarning kunlik yashash hayotidagi holatlari, his tuyg'ulari odamlarga o'tib tasvirlanishi keltirilgan. Hayvonlar asosan quyidagi xislatlarni namoyon etadi,

- Chumoli-mehnatkash
- Sher – kuch
- Bo'ri — ochko'z, kuchli, sadoqatli
- Quyon- qo'rqqoqlik
- It – do'st, sodiq, qul
- Eshak – ahmoq, mehnatkash
- Qush – tezkor, yengil
- Maymun- masxaraboz
- Mushuk – muloyimlik
- Tulki – ayyor, ozg'in
- Ilon- tili o'tkir
- Tovuuq- ahmoqlik.

Shu kabi hayvonlar orqali frazeologik birliklarda insonlar ifodalanadi. Salbiy xarakterlarni ifodalashda asosan, eshak, tulki, ilon va bo'ri kabi hayvonlardan foydalanilgan bo'lsa, ijobiy holatlarda – sher, chumoli, qo'y kabi hayvonlar tasvirlanadi. Shu bilan birgalikda ham yaxshi tomonlama, ham yomon tomonlama insonlarga qiyoslanadigan hayvonlar ham mavjud bo'lib, it, sher, bo'ri, ilon va quyonni misol qilib olishimiz mumkin.

- Itdek sadoqatli do'stim bor– ijobiy, -it bo'lib hurganingdan keyin hamma ishlaring orqaga ketadi-da – salbiy
- Sheryurak bola ekan – ijobiy, — sherning po'stinini kiygan sichqon kabi davrada yurdi – salbiy
- Ilondek tirmashib chiqdi – ijobiy, — ilonni yog'ini yalagan ekan – salbiy
- Quyon bo'lib ketasan bu tug'ishigda – ijobiy, quyon yurak ekanligini tan oldi – salbiy
- U doim bo'ridek yolg'iz – ijobiy, Anvar doim bo'ri yurish qiladi – salbiy.

Ushbu yuqoridagi holatlarda bir hayvon nazdida ikki xil ijobiy va salbiy holatlar gavdalanirilmoqda. Bu kabi frazeologik birliklar xalqimiz orasida keng tarqalgan va doimiy faol tarzda muloqotda qo'llaniladi. Insonda tasavvur juda ham kuchli rivojlangan. U doimo fikrlarini tasavvurida namoyon etadi. Ushbu frazeologik birliklar tasavvurimizni boyitishga, fikrni aniq, tiniq va ravon ifoda etishimizga doimo yordam beradi. Tilni bu birliksiz tasavvur qilish juda qiyin.

Ushbu o'rinda metonimiya, frazeologik birlik va maqollar bir- biriga o'xshash til qatlamlarimi degan savol tug'iladi. So'zlarda doimo ikki xil ma'no aks etadi. Bular o'z ma'nosida va ko'chma ma'noda qo'llanilishidir. Ushbu o'rinda biz so'zlarni qay tarzda o'z va ko'chma ma'noda kelayotganligini anglashimiz mumkin. Demak, bunda so'zlarni yakka holatda qo'llab ko'ramiz. Agarda u yakka holatda ham, matn tarkibida ham bir xil ma'no anglatga bu o'z ma'nosida kelgan deb hisoblanadi. Agar aksincha yakka holatda kelsa bir ma'no, kontekst ichida kelganda boshqa ma'noni o'zida aks ettirsa bu ko'chma ma'nodagi so'z sanaladi. so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llanilishi bu metonimiya deyiladi. "Sovuq niyat qilma do'stim". Ushbu gapimizda "sovuq niyat" degan so'z yo'q va bu yerda ma'no ko'chishi kuzatilyapti. [6]

Frazeologik birliklar bu tayyor holda tilga ko'chadi ya'ni tilga tayyor holatda kirib keladi. Ular yagona bitta ma'noni anglatib keladi va ularni o'zgartirishni imkoni yo'q. o'ziga xos ma'no, barqarorlik va ajralmaslik xususiyatlarini o'zida namoyon etadi. "Tilini tiymoq", "boshi osmonda". Frazeologiya – tilshunoslikning barqaror shakllarini, ularning ma'nosi va ishlatilishini o'rganadigan bo'lim. Frazeologik birliklar ya'ni idiomalar, ularning stilistik xususiyatlari, til boyligini oshiruvchi vositalar sifatida ko'riladi. [7]

Maqollar esa bu xalq og'zaki ijodi sanalib, asosan so'z birikma shaklida emas, balki gap shaklida namoyon bo'ladi. Uning asosini hikmatli so'zlar, pand- nasihat va hikmatli so'zlar tashkil etadi. "ona bilan bola – gul bilan lola".

Yuqorida metonimiya, frazeologik birlik va maqollarni birma- bir ko'rib chiqdik. Xulosa shaklida shuni ayta olamizki ular tuzilishi, ma'no turi, stilistik vazifasi, tarjimasi va ma'nosi jihatdan bir-biridan farq qiladi. Frazeologik birliklar va metonimiya stilistik vazifasi va ma'no turi jihatdan o'xshash bo'lsada, ammo tuzilishi va tarjimasi orqali bir-biridan tubdan farqlanadi. Lekin bularning uchalasi ham til uchun bo'lib, tilshunoslikning muhim va ajralmas qismi sanaladi.

Frazeologik birliklar nutqda va badiiy asarda keng tarzda yillar osha qo'llanib kelinmoqda. Mazmunni ifodalash, vaziyatni aniq yoritib berish maqsadida ishlatilib, tasavvurimizda mavjud voqeani va hodisani yorqin tarzda namoyon etishga xizmat qilmoqda. Ushbu birliklar til uchun, muloqot uchun juda muhim va takrorlanmas tilshunoslikning bir qismidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" –T. O'qituvchi, 1978.
2. Alibekova D. A. "Frazeologik birliklar bo'limi" – 2022.
3. G'afur G'ulom "Shum bola" – T. Yoshlar, 2018.
4. Shamurotova M. "Frazeologik birliklarning tilimizda va ayniqsa nutq jarayonida ifoda etishning o'ziga xosligi" – Social sciences, 2024.
5. Qodiriy A. "Kecha va Kunduz" – T. Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1935.
6. Shermamatova S. Sobirova N. Nazirova Z. "O'zbek tilida ma'no ko'chish usallari: metafora, metanomiya, sinekdoxa, vazifadoshlik - Oriental Renaissance, 2023.
7. Abdurasulov, Omonturdiyev, Raimnazarova. "Hozirgi o'zbek adabiy tili(fonetika-fonologiya, orfoepiya, grafika, orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) – T. Toshkent, 2011.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).